



VATANIMIZ TARIXIDA MING YILLIK TARAQQIYOT YO'LINI BOSIB O'TGAN HARB ILMI: TUSHUNCHA VA TARIX

Matquliyev J.D.,

Mayor, Chirchiq OTQMBYU Saf bo'limi katta ofitseri.

Xudayorova Z.O.

QK xizmatchisi, Chirchiq OTQMBYU

Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk hukmdor va harbiy sarkardalar Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, faoliyati va bitmas tuganmas iste'dodi, ilm-ma'rifat va harb san'atini bir vaqtida Hukmdorlik mas'uliyati bilan mujassam qila olgan, hayot yo'llari va mamlakatimiz harb san'atining 1000 yillik tarixi qisqacha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Temur, "Temur tuzuklari", qo'llar, qanbul, Harb ilmi, "To'lg'ama", suvoriylar, Boburnoma, "Xatti Boburiy", "fotih sarkarda", Temuriylar.

Dunyo tamaddunining buyuk tarixi haqida gap ketganda, bevosita Amir Temur nomi alohida tilga olinadi. Biz dunyo tarixida ko'plab ulkan imperiyalar, davlatlar-u sultanatlar yaratilganini, ular o'z davri uchun muhim bo'lgan eng yirik hududlar hamda karvon savdo yo'llarini nazorat qilganligini, shu davr tili bilan aytganda dunyoning yarmini bosib olganligiga ham guvoh bo'lamic. Bunday ulkan imperiyalar ko'plab topiladi tarix zarvaroqlarida.

Biroq ular ichida Temur va temuriylar Imperiyasining nomi o'zgacha yangraydi, xo'sh buning boisi nima?

Amir Temur- bu nom hali hanuz ko'plab millat-elatlarning, xalqlarning qalbida g'urur, faxr, iftixor tuyg'ulari bilan birga baz'an sog'inch va hattoki qo'rquv



ham sola oladigan cheksiz jahongirning ismidir. Va albatta ushbu Jahongirning nomi yetib bormagan dunyoning biron qismi qolmagan asli. Shu o‘rinda yuqoridagi savol va uning javobiga to‘xtalib o‘tsak, Temur tamonidan asos solingan ulkan Temuriylar sultanati tarkibiga dunyoning 33 ta o‘lkasi va viloyatlari kirgan bo‘lib, Hindiston hamda Xitoydan Qora dengiziga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘igacha cho‘zilgan bo‘lib, bundan tashqari Kichik Osiyo, Misr, Suriya va shimoli g‘arbda Quyi Volga, Don bo‘ylari; shimoli-sharqda Balxash ko‘li va Ili daryosigacha; janubi-sharqda esa Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan hududlar kirgan. Endi mantiqan chuqurroq o‘ylab ko‘ramiz, bir inson umri davomida shuncha hududlarni bitta hokimiyat ostida birlashtirmog‘i, idora etishi va barisida tinchlikni ta’minlay olishi mushkul emasmi? Albatta bor sultanatni idora eta olmasdan bir qisim qum singari havoga sovurib yuborgan hukmdorlarlar ham talaygina. Ana endi ushbu mushkul ishni nafaqat sidqidildan uddalay olgan, balki unga butun umrini baxshida etgan hukmdor bu albatta Sohibqiron Amir Temurdir.

Muhtaram Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek; “Bir fikrni hech qachon unutmasligimiz kerak: armiyani moddiy jihatdan barcha zamonaviy zarur texnika va jihozlar, qurolyarog‘lar bilan ta’minalash mumkin. Ammo shaxsiy tarkib ma’naviy jihatdan zaif bo‘lsa, ya’ni, askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas’uliyat bo‘lmasa yoki ularning o‘rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin”.

Shunday ekan, yoshlар, ayniqsa, harbiy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan kursant va tinglovchilarda buyuk tariximiz, ulug‘ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning boy tajribasidan foydalanish va ularga munosib bo‘lishga intilish muhim omil hisoblanadi.

Vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lida jon fido qilgan yurtdoshlarimizning vatanparvarligi va qahramonligi, hamda, yurt, oila, ota-onasi va farzandlar himoyasi



xalq va ajdodlar xotirasi oldidagi muqaddas burch ekanligini har bir kursant aslo unutmasligi darkor.

Yurtimizga miloddan avvalgi VI asrda bostirib kirga fors bosqinchilari Kir II ga qarshi kurashgan massagetlar malikasi To‘maris, Doro I ga qarshi jasorat ko‘rsatgan sak qabilasi a’zosi Shiroq, Aleksandr Makedonskiyga qarshi tengsiz janglarda o‘zining Vatanparvarligini namoyon etgan Spitamenlarning hayot yo‘li har bir harbiy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Ingliz tarixchisi H.Elliott Bobur haqida shunday deb yozgan: “Tabiatan hushchaqchaq, jasur, ulug‘vor, o‘tkir zehnli va ochiq chehrali kishi. Agar uning hayot yo‘li Ovrupoda o‘tganda Genri VII ning o‘zginasi bo‘lgan bo‘lar edi. U qalbini va vaziyatni darhol anglab olardi. Musiqa va bog‘ yaratish ishiga juda ishqiboz edi. Hindistonda juda ko‘p inshootlar barpo etgan edi”.[¹]

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) Temuriyzoda shahzoda bo‘lib, Andijon muzofatida tug‘ilgan. Bu shahar otasi Umarshayx Mirzoga bir vaqtlar o‘z otasi, Mironshoxning nevarasi bo‘lmish Abu Said Mirzo ibn Xalil Sulton tamonidan tuhfa etilgan edi. Biroq hokimiyat ko‘zlariga shira bostirgan Temuriyzodalar o‘z og‘a- inilari mulkiga ham ko‘z tikayotgan bir tahlikali davrda bevaqt vafot etgan Umarshayx Mirzodan to‘ng‘ich o‘g‘li Zahiriddin Muhammadga nafaqat muzofot balki uning mudofaasi ham qoladi. Bu paytda Boburning yoshi 12 da bo‘lgani esa ancha vaziyatni qiyinlashtirardi.

Boburning fikriy doirasi nihoyatda keng, uning tushunish chegarasi chuqur, xotirasi esa tengsizdir. U hamma vaqt kamolotga intilgan shaxsdir. Bobur hatto turkiy xalqlar uchun arab alifbosining o‘qilishi va yozilishining murakkabligini o‘z vaqtida anglab yetgan. Uni osonlashtirish yo‘li bilan xalq savodxonligini tezroq

¹ Sharma L.P. Boburiylar sultanati.-T.:”Ma’naviyat”nashriyoti, 1998-B-22.



oshirishni maqsad qildi va o‘z alifbesini tuzish uchun intildi. U yozgan alifbe xalq ta’limi tarixida “Xatti Boburiy” nomi bilan mashhurdir.[²]

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti davomida ko‘plab jang-u jadallar va g‘alabalarni, shuningdek alamli mag‘lubiyatlarni ham totgan zot edi. O‘z o‘rnida bularning barisi Boburni yanada intiluvchan, yengilmas, mustahkam irodali hamda ishtiyoqi baland sarkarda bo‘lishiga zamin yaratdi.

Bobur zamonasining turli xalqlaridan davri uchun juda muhim bo‘lgan harbiy jang usullari va hiylalarni ham o‘rgandi. Jumladanm Shayboniylardan urushning to‘lg‘ama usulini, mo‘g‘ullardan esa pistirma qo‘yishni o‘rgandi. Afg‘onlardan poroxli miltiq ishlatishni o‘rgangan bo‘lsa, eroniylardan artilleriyani ishlatishni, turklardan esa ko‘chma suvoriylar qo‘smini (kavaleriya) ni unumli ishlatishni o‘rgandi. Bobur turk zabitlari bo‘lmish Ustod Ali va Mustafolar yordamida kuchli artilleriya qo‘sminini tuzdi va shu tufayli Xindistondagi raqiblari ustidan g‘olib bo‘ldi.

Ingliz tarixchisi Rashbruk Uilyamsning ta‘kidlashicha, “Boburning Hindistondagi tantanasiga asosiy sabab bo‘lgan yagona moddiy omil baquvvat artilleriya bo‘lgan edi”[³]

Bobur shunchalar buyuk va qudratli komil shaxski, hatto unga va uning sulolasiga qarshi bo‘lganlar ham uning asliyatini rad etib, unga bo‘hton qilishni istamaydilar. Aksincha uni tan olib, unga havasla boquvchilar ham talaygina. Shulardan biri Hindistonda uzoq muddat yashab, u yerda Angliya qirolichasi Viktoriyaning siyosatini ro‘yobga chiqarishda katta xizmat ko‘rsatgan polkovnik J.B.Malleson Bobur haqida shunday fikrlarni keltirib o‘tadi—“ uning Hindistonga nisbatan olib borgan siyosatini “fotih sarkarda” iborasidan ko‘ra kengroq mazmunga

² Mirzayev I. Bobur ma’rifati.-T.:”O‘qituvchi”nashriyoti, 1996-B-13.

³ Sharma L.P. Boburiylar sultanati.-T.:”Ma’naviyat”nashriyoti, 1998-B-10.



ega bo‘lgan yorliq bilan sharxlash lozim bo‘ladi. Men uni qudratli hukmdor, mohir sarkor, odil hakam sifatida tasavvur qilaman”^[4]

Amir Temurning qo’shinlari piyoda va otliq askarlardan tashkil topganligini, lekin piyodalar ham uzoq cho’l safarlarida otlar bilan ta’minlanganligini, otliq askarlarning katta qismi esa kerak bo’lganda piyoda tartibda jang qilishga ham o’rgatilgan. Shuning uchun Sohibqiron qo’shinlari har qanday tabiiy sharoitda jangovar qobiliyatini saqlab qolgan. Amir Temur sipohlarini tashkil etish yoki ularning jangovarligini oshirish ishlari bilangina emas, balki sipohilarning ichki masalalari, xususan, sipohga oziq-ovqat, maosh, turli moddiy in’omlar qilish, taqsimlash, ya’ni ayrim amirlarga, mingboshi, yuzboshilarga xazinadan ko’rsatgan qahramonliklari uchun boylik, yer-suv berish, amirlik mansabini berish, navkarlarni eng quyi darajadan oliv mansabgacha tayinlash qoidalarini, tuzuklarini ishlab chiqadi. Bu borada butun boshli ta’limot yaratdi. Qo’shinda bir-biriga so’zsiz prinsiplari mavjud edi. Oddiy jangchilar ham o’nboshi yoki yuzboshi lavozimlariga erishishlari mumkin edi. To‘g‘ri har bir shaxs o‘zini ko’rsatishi hamda qobiliyatini namoyon etishi lozim edi. Sipohiga beriladigan maosh masalasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u Temurning amiriga binoan quydagicha tashkil qilingan edi. Oddiy sipoh o‘z vazifasini to’liq bajarganda unga mingan otining bahosi xisobida oylik maosh berilgan. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan – to‘rt ot bahosigacha. O’nboshilar maoshi qo‘l ostidaga oddiy sipohiydan o‘n barobar ortiq bo‘lgan. Yuzboshilarniki esa o’nboshilarnikidan ikki barobar yuqori, mingboshilarniki esa yuzboshilarnikidan uch barobar ziyoda bo‘lgan. Sipohiylargacha maosh belgilashda Temur moddiy rag‘batlantirish prinsiplariga qatiy amal qiladi. U askarlarning maoshini tenglashtirmasdan ko’rsatgan. Xizmatlariga qarab ziyoda qilib bergen. Bundan tashqari, aloxida qahramonlik ko’rsatganlar uchun ulufa, tanho kabi rag‘batlantirishlarni ham joriy qiladi. Temur yozadi: “Amr qildimki, amirlar

⁴ Erksin.U. Bobur Hindistonda.-T.:”Cho‘lpon” nashriyoti,1995.



amirining maoshi o‘z qo‘l ostidagilardan o‘n barobar ortiq bo‘lsin. Shunga o‘xhash devonbegi va vazirlarning maoshlari esa amirlarnikidan o‘n barobar ko‘p bo‘lsin. Yasovullar, qalaqchilarning maoshlari o‘z xizmatlariga yarasha, mingdan o‘n ming (miqdorida) bo‘lsin”^[5].

Ahli majlis bo‘lmish sayyidlar, olimlar, fozil kishilar, hokimlar, tabiblar, munajjimlar, qissaxonlar, xabarchilar, tarixdonlar, xullas, barcha – barcha davlat mulozimlariga o‘z mavqelariga qarab maosh belgilangan hamda suyurg‘ol xuquqiy instituti ishlab chiqilgan. Piyodalar, xizmatchilarga yuz tangadan ming tangagacha maosh berish joriy qilinadi. Agarda sipohiylardan qaysi biri jangda xatolikka yo‘l qo‘ysa, uning maoshi o‘ndan biriga kamaytirilgan, maoshni olish, belgilash, qat’iy hisob-kitob bilan devonbegilar orqali amalga oshirilgan. Devonbegilar o‘z navbatida bundan Temurni xabardor qilib turganlar. Sipohiyarning har biriga maxsus farmonga ko‘ra maosh olish yorlig‘i berilgan. Yorliqda ularga berilgan maosh miqdori aniq qilib yozib qo‘yilgan. Amir Temur davlat apparatini, birinchi navbatda, armiyani moddiy jihatdan ta’minalash manbai (soliqlar) tizimini va ulardan xizmatchilarga maosh belgilash, maosh miqdorlari hamda umuman, xazinadagi kirimchiqim hisob-kitoblarni aniqlik bilan olib borilishini joriy qiladi. Masalan, sipohga tanho(saroy xizmatchilari, amir, bohodirlarga maxsus xazinadan beriladigan maosh.) va ulufa(oziq-ovqat, maosh, soliq turi.) taqsimlash tug‘risida maxsus tuzuklar ishlab chiqadi. Bu qonun – qoidaga binoan piyodalar va qalaqchilar mablag‘i devonxonaga keltirilib, shu yerda ularga ulashilgan. Sipohiylar va bahodirlarning olti oylik maoshini ham hisoblab, tanho xazinasidan olib berishini buyurgan. O‘nboshi, yuzboshilarga esa maoshni shahar hokimligi (shahar aholisidan yig‘ilgan soliq) xazinasi va podsholik mulki daromadlaridan naqd pul hisobida yozish joriy qilinadi. Amirlar va amir ul – umarolarga esa Sarxad yerlardagi viloyatlardan biri tiyul belgilangan. Davlat mulozimlarining maoshi qat’iy qilib

⁵ Temur Tuzuklari. - T.: “O‘zbekiston”, 2014. 100-b



belgilanar ekan, Amir Temur ularga oddiy xalqdan ortiqcha soliqlar, harajatlar olishni taqiqlab qo‘yadi. Masalan, Amir Temurning maxsus hukmi bilan amirlar, mingboshilar raiyatdan moli – jihot (naqd pul yoki mahsulot bilan to‘plangan soliqlar) yiqqanlarida, xirojdan ortiqcha sovariylari (podsho va xonlar o‘z viloyatlaridan o‘tayotganlarida talab qilinadigan tortiqlar va sovrinlar), Kutalga (choparlar va elchilarga kunok (tunash) xaqi berish va Shilon (podshohlar va amirlarning ovqatlanishi uchun to‘planadigan soliqlar) talab qilishlari taqiqlanar edi.

Bugun yurtimiz mustaqil, vatanimiz obod, yurtimiz tinch. Biroq bu kunlarga yetgunimizcha bu go‘sada minglab buyuk shaxslar vatan mudofaasida mislsiz sadoqat bilan xizmat qilganlar. Bobur o‘z yurtidan bosh olib chiqib ketgan esada bu ish tag zamirida shu xalqning joni va molini o‘z boshi evaziga saqlab qolmoqlik yotganligini hech qachon unutmasligimiz lozimdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda, shuningdek, Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik, sadoqat, fidoiylik hamda milliy g‘ururni yanada yuksaltirishga yordam beradi. Yoshlarimiz davlat va jamiyat rivoji, uning kelajagi uchun har qanday vaziyatda oldiga qo‘yilgan jangovar vazifani og‘ishmay bajaradigan, mafkuraviy immuniteti mustahkam Vatan himoyachisi kamol topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Temur Tuzuklari. - T.: “O’zbekiston”, 2014. 100-b
2. Bobur. Boburnoma .-T.: “Fan” nashriyoti, 2019 y
3. Gulbadanbegim. Humoyunnoma.-T.: “Ma’naviyat” nashriyoti 1998 y
4. Erksin.U. Bobur Hindistonda.-T.:”Cho‘lpon” nashriyoti,1995 y
5. Sharma L.P. Boburiylar sultanati.-T.:”Ma’naviyat”nashriyoti, 1998-B-10.
6. Mirzayev I. Bobur ma’rifati.-T.:”O‘qituvchi”nashriyoti, 1996-B-13.